



## TURKIYA SIYOSATSHUNOSLAR TOMONIDAN TURKIYA VA YEVROPA ITTIFOQI MUNOSABATLARIGA ILMIY YONDASHUVLAR

**Maxmudova Zulxumor Ikromjon qizi**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti

**M.M.Baxadirov**

Ilmiy rahbar:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7939830>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-May 2023 yil

Ma'qullandi: 13-May 2023 yil

Nashr qilindi: 16-May 2023 yil

### KEY WORDS

Turkiya, Yevropa, nazariy  
asoslar, savdo aloqalari, ilmiy  
qarashlar.

### ABSTRACT

Xalqaro munosabatlar tizimi murakkablashgani sari, davlatlar va xalqaro tashkilotlarning yanada yaqinroq integratsiyalashuviga ehtiyoj ortib bormoqda. Dunyodagi turli hududiy, etnik, diniy va boshqa shu kabi nizolar sabab urush o'choqlari ko'paydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'biri bilan aytganda, "Ming afsuski, dunyoning turli mintaqalarida keskinlik o'choqlari ko'payib bormoqda. Bu ham ayni haqiqat. Shunday murakkab davrda tinchlik uchun kurash chindan ham eng dolzarb vazifaga aylanmoqda". Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, dunyo davlatlari o'z tinchligi yoki mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida xalqaro harbiy tashkilotlarga a'zo bo'lib va ularning faoliyatida bevosita ishtirok etmoqda. Tadqiqot ishimizning asosiy masalasi sanalgan Turkiya ham o'z tashqi siyosatida bir qancha xalqaro tashkilotlar bilan hamkor. Turkiya uchun eng ahamiyatli ittifoq Yevropa Ittifoqi hisoblanib, 52 yildan buyon Turkiya ushbu Ittifoqqa kirishga harakat qilib kelmoqda. Munosabatlar tarixiga nazar solsak, u aytarliq maqtovgga loyiq emas, negaki bunda bir tarafning manfaatleri doim ikkinchi tomondan ustun kelib turgan, tabiiyki bu tarafdarning o'zaro aloqalarida beqarorlikni keltirib chiqqan. Munosabatlarning o'zgaruvchanligiga qaramasdan Turkiya Ittifoqqa kirishga harakat qilib kelmoqda. Yevropa Ittifoqiga a'zolik 10-15 yil oldin Turkiya uchun davlat iqtisodiyoti masalasida muhim ahamiyat kasb etgan bo'lsa, bugungi kunda siyosiy maqsadlaridan birigagina aylangan. Xalqaro munosabatlarda yetakchi aktorlardan biriga aylanib kelayotgan Turkiya iqtisodiyotda yevropa davlatlaridan ilgarilab ketmoqda. Ma'lumki, davlatlar o'z siyosiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda xalqaro

*munosabatlarga kirishadi. Turkiya ham Yevropa Ittifoqiga a'zolikni qo'lga kirita olmayotgan bo'lsa ham, o'zaro aloqalar davom etib kelmoqda va bundan ikkala taraf ham manfaatdor.*

*Tadqiqotda Turkiya va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi so'nggi 5 yillikdagi munosabatlar, muammolar va nisbiy yechimlarga to'xtalib o'tiladi. Albatta, bunday munosabatlarda O'zbekistonning pozitsiyasi faoliyatiga ham xulosaviy fikrlar beriladi.*

## **KIRISH**

Bizning ishimizda monografiya materiallari "Turkiya Yevropa va Osiyo o'rtasida. 20-asr oxiridagi yevropalashuv natijalari." Bu asar iqtisod fanlari doktori N.G. Kireeva boshchiligidagi mualliflar jamoasi tomonidan yozilgan. Asarda eng muhim, tub o'zgarishlar yoritilgan 20-asr oxirida turk davlatining iqtisodiyoti, siyosati, mafkurasi, g'alabadan keyin kamalistlar tomonidan e'lon qilingan yevropalashtirish natijalari milliy ozodlik kurashiga alohida e'tibor beriladi.

Turkiya bilan munosabatlarining mafkuraviy, siyosiy va iqtisodiy jihatlari Rossiya va boshqa MDH davlatlari va siyosiy islom harakati tarixi R.P. Kondakchyan monografiyalarida batafsil bayon etilgan "Turkiya: ichki siyosat va islom". R.P. Kondakchan monografiyasining muhim xususiyati shundaki, uning ishi umumiy qabul qilingan tushunchani rad etadi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha tadqiqot adabiyotlari ham turkiy, ham bir qator Yevropa tillarida nashr etilgan asarlarga mansub. Dissertatsiya ustida ishlashda asosiy qiziqish turk mualliflarining asarlarini tadbiq etadi. Turk adabiyotining evolyutsiyasi va turklar tomonidan xorijiy tillarni o'rganish mashhur turk folklorshunosining ijodini batafsil ko'rib chiqishimiz mumkin Pertev Naili Boratav "Folklor va adabiyot" (Pertev Naili Boratav, Folklor. ve Edebiyat, Cilt: 2, 1982.), u boshqa narsalar qatorida tahlilchi hamdir. Turk mualliflari Turkiyaning kelajagi haqidagi munozaralarini nashr eta olmaydilar, chunki ularning ishlari Turkiyaning siyosiy va ijtimoiy-madaniy muammolarini tahlil qilish bilan bog'liq bo'lib, ularni muhokama qilishga Turkiyada senzura to'siq bo'ladi. Shuning uchun etnik turklarning bizni qiziqtirgan mavzulardagi asarlari asosan ingliz tilida Yevropa va Amerika tillarida nashr etilgan.

Turkiya siyosati tadqiqotchisi Omer Kahi "Turkiyadagi saylovlar 2002-yil 3-noyabr va siyosiy islomni kuchaytirish", bu erda joriy hukumatni baholashdan tashqari "Adolat va taraqqiyot partiyasi" Yevropa Ittifoqiga kirish masalasida, muallif turkiy tomonlarning tahliliy tavsifi beradi.

Turk muallifi Ilhan Uzgelning navbatdagi asari alohida e'tiborga loyiq. Bu "Turkiya va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlar dosyesi, paradoks modernizatsiya va sekulyarizatsiya: Turkiya qurolli kuchlariga qarshi. Yevropa Ittifoqi." Bu ishning muhim tarafi shundaki, Turk armiyasi Yevropa Ittifoqi integratsiyasiga qarshi ekanligi haqidagi pozitsiyani tasdiqladi.

## **ASOSIY QISM**

Turkiya va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlar tarixiga oid fundamental ishlar quyidagi g'arb mualliflarining asarlaridir: Erik Yan Tsyurcher "Yevropa Ittifoqi, Turkiya va Islom", Ali Carkoglu, Barri M. Rubina "Turkiya va Yevropa Ittifoqi: ichki siyosat, iqtisodiy integratsiya", Pashalis Zilidis "Turkiya va Yevropa Ittifoqi: muammolar va a'zolik istiqbollari", Mehmet Ug'ur "Yevropa Ittifoqi va Turkiya".

Dunyo hamjamiyatining yirik tashkiloti bo'lgan Yevropa Ittifoqi bugungi xalqaro munosabatlarning muhim yirik aktori hisoblanadi. Yevropa rivojlanishining asosiy tamoyillarini belgilab beruvchi Yevropa Ittifoqi a'zolar uchun ham katta imkoniyatlar tadqim etadi, xususan yagona pul, bozor, bojxonasiz tizim, madaniyat, ijtimoiy yengillik kabilar, shu bilan bir qatorda ularga katta ma'suliyat va majburiyatlarni ham yuklaydi. Yevropa Ittifoqiga kirish istagini bildirgan davlatlar bugun ko'pchilikni tashkil etadi, ittifoqqa a'zolik qator kategoriya va me'yorlarni talab etganligi sabab bu jarayon ma'lum muddat talab etadi. Turkiya Yevropa Ittifoqiga kirish uchun o'z qonunlariga, jamiyat me'yorlariga bir qancha o'zgartirishlar kiritib kelmoqda. Xususan, 2000-yildan so'ng hokimiyat tepasiga kelgan asosan diniy-g'oyaviy tamoyillarga asoslangan AKP bir qancha islohotlar dasturlarini tadqim etdi. Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga qo'shilish to'g'risida Turkiya tashqi ishlar vaziri Ahmed Davuto'g'li "Yevropa Ittifoqiga a'zolik Turkiyaning strategik tanlovi" deb ta'kidlagan edi.

Tashqi ishlar vaziri Ahmed Davuto'g'lining tashqi siyosat konsepsiyasi bu jabhada umuman yangi qarashlarni yuzaga chiqardi. Ma'muriy va siyosiy tuzum, davlatchilik hayotining turli jabhalari va davlat amaliyotlaridagi fuqarolik va siyosiy huquqlarga erkinlik kabilarni o'z ichiga oladi. 2000-yillarda Turkiya ijtimoiy-siyosiy o'zgartirish asosiy xususiyatlari davlat hayotining turli darajalarda aniq ko'zga tashlanadi:

- Harbiy elita tomonidan siyosiy subyektivlik yo'qolishi;
- Kipr va Kurd muammosiga yondashuvlarda siljishlar;
- So'z erkinligi uchun yangi huquqiy baza yaratish;
- Etnik va diniy ozchiliklar huquqlari himoya qilish borasida yangi qonun hujjatlari ishlab chiqish;
- Siyosiy ong va fuqarolik jamiyati ishtiroki o'sishi tendensiyalari, bag'rikenglik tamoyillarining o'zgarishlari kabilar.

Ko'pchilik tadqiqotchilar fikriga ko'ra, Turkiya va Yevropa munosabatlarida dastlabki qadam XIX asr o'rtalarida Usmoniylar imperiyasining mamlakatni g'arb tipida modernizatsiya qilish, iqtisodiy, siyosiy av ijtimoiy hayotni Yevropa darajasiga olib chiqish va unda o'ziga xos o'rin egallashga bo'lgan intilishlari sifatida belgilanadi. 1923-yil Turkiya respublika deb e'lon qilingach, mamlakatning g'arblashuvi jadallashdi. 1952-yilda Turkiya NATOga qo'shildi. Yevropa Kengashi a'zosi bo'ldi, yevropa iqtisodiy hamkorlik va tarqatqiyot tashkilotiga a'zo bo'lib kirdi. 1959-yilda Yevropa Iqtisodiy Hamkorligi tashkiloti tashkil etilgach, yarim yil o'tib, Turkiya a'zolik uchun so'rov yuboradi. 1963-yilda Yevropa Iqtisodiy Hamkorlik tashkiloti va Turkiya, keyinchalik Yevropa Ittifoqi munosabatlarni tartibga soluvchi Anqara shartnomasi imzolandi. Ushbu hujjat integratsiyasining 3 bosqichi dastlabkisi bojxona ittifoqini yaratish bo'lsa, keyingisi yagona iqtisod va moliya, yakuniysi ittifoqqa a'zolikni ko'zda tutardi. 1996-

yilda Bojxona Ittifoqini tashkil etishga erishilgan bo'lsada, to'liq a'zolik bosqichi bugungi kunda ham muammoli masala bo'lib qolmoqda. 1999-yilda Yevropa Ittifoqining Helsinki sammitida Turkiya rasmiy nomzod davlat maqomini olgan, bu Anqara va Bryussel o'rtasidagi munosabatlarda muhim bosqich bo'lib xizmat qildi, bu o'z navbatida Turkiyada ichki siyosatida jiddiy islohotlarni o'zida aks ettiradi. Biroq, Turkiya Kopengagen mezonlarga muvofiq islohotlar yo'l xaritasini 2000-yil o'rtalarigacha bajara olmasligi, a'zolik muzokaralarini vaqtincha muzlatib qo'yishiga olib keldi. Bu esa Turkiya siyosiy elitasi va oddiy fuqarolarning Yevropa Ittifoqiga kirishiga bo'lgan ishonchini pasayishiga olib keldi. Turkiya va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi muammolar hamda a'zolikka kirishga to'qsinqinlik qiluvchi asosiy faktorlarni qarab chiqamiz:

Birinchidan, YI davlatlarning asosiyko'pchiligining qarshiligi; ( Germaniya, Fransiya, Italiya);

Ikkinchidan, mamlakatdagi siyosiy beqarorlik va avtoritarizm;

Uchinchidan, Turkiya ichki siyosiy elitasida YI kirish masalasida qarama-qarshiliklarning mavjudligi;

To'rtinchidan, xalqaro va mintaqavaiy muammolar (Kipr mojarosi, Arman genotsidi, Suriya inqirozi, Liviya muammosi);

Beshinchidan, madaniy va diniy qarashlardagi tafovut ( Yevropa madaniyatini qabul qilmaslik va diniy nizolar);

Oltinchidan, iqtisodiy to'siqlar jumladan, Turkiya hududining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosiblik ( shimoliy-g'arb rivojlangani holda janubiy-sharq rivojlanmasligi).

Anqara va Bryussel o'rtasidagi munosabatlar noturg'unligining yana bir omili Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga to'liq a'zoligiga ochiqdan-ochiq qarshi turgan Germaniya va Frantsiya rahbarlarining pozitsiyalaridir. Germaniya qo'rquvlarining asl sababi, YEIning rivojlantirishdagi a'zolik badalining asosiy qismi uning gardaniga yuklanganligi, qolaversa turk migrant ishchilari oqimining ortishi bu esa pirovardida nemis millatiga bo'lgan taxdidni keltirib chiqarishi ehtimoli bilan izohlanadi. Frantsiya ham qarshi tomon sanaladi, bu borada sobiq prezident Nikoloya Sarkozi "...Yevropaning belgilangan chegaralari bor, hohlagan davlat uning a'zosi bo'la olmaydi. YEIda Turkiyaga o'rin yo'q" deya keskin bayonot bergan edi.

Oxirgi saylovlardan keyin hukumat tepasiga kelgan yosh, serg'ayrat prezident Emmanuel Makron ham Turkiyaning YEIga kirish oppazitorlaridan ekanligini bir necha bor namoyon qildi. Turkiyaning YEIga kirishiga qarshi turgan guruh vakillari mamlakatning tashkilotga qabul qilinishiga to'siq sifatida bir necha omillarni keltirib o'tadi. Bulardan eng asosiysi, davlatda harbiylarning siyosatga kuchli ta'siri deb bilishadi. Ammo keyinchalik 2002 yilda Turkiyada hokimiyat tepasiga adolat va taraqqit partiyasi kelishi bilan demokratik islohotlar amalga oshirildi xususan, ma'muriy va siyosiy tizimni erkinlashtirish, fuqarolik huquqlari va so'z erkinligi hamda etnik va diniy ozchiliklarning ahvolini yaxshilashga qaratilgan islohotlar jadallashuvini ko'rishimiz mumkin. Bu jarayonlar siyosiy tuzumda tub burilishlarni amalga oshirish imkonini berdi, xususan;

a) Milliy Xavfsizlik Kengashining harbiy tashkilot sifatidagi maqomi fuqarolik tashkilotiga o'zgartirildi, shu orqali harbiylarning siyosatga aralashuvi keskin kamaytirildi;

b) Kurdlar “etnik ozchilik” sifatida tan olindi va Kurd tilida ta'lim to'g'risidagi cheklov olib tashlandi hamda radio va televidiniyalarga ruxsat etildi;

d) Konstitutsiya va Fuqarolik Kodeksiga o'zgartirishlar kiritildi, erkak va ayollarning teng huquqliligi rasmiy e'lon qilindi;

e) tinchlik davrida o'lim jazosi bekor qilindi, ushbu liberal islohotlar tufayli 2005-yil 3-oktyabrda Turkiyaning YEIga kirishi masalasida muzokaralar boshlandi.

Lekin bu ijobiy hal etilmasdan, muzokaralar sun'iy ravishda kechiktirildi, bunga Turkiyaning siyosiy, iqtisodiy va sud tizimi YEI nomzodligi talabiga javob bermaslik hamda ushbu sohalarida jiddiy islohotlar o'tkazish zarurligi asos qilib ko'rsatildi. Keyinchalik bunga jiddiy asos ham topildi, 2006 yilda Human Rights Watch inson huquqlari tashkiloti Anqarani kurd namoyishlarini kuch bilan tarqatib yuborish, politsiya vahshiyliги, mahbuslarni qiynash hollari va kurdlarning o'z ona tilidan foydalanish huquqlarini kamsitishda haddan ortiq kuch ishlatgani uchun keskin tanqid qildi. Politsiyaning vakolatlarini asossiz ravishda kengaytirish, so'z va majlis erkinligini cheklash hamda terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi qonunni suiste'mol qilganligi sabab qarshilikka uchradi. Afsuski bu qonun hozircha bekor qilinmagan, shu kabi qator sabablar Turkiyani ittifoqqa qo'shilish jarayonlarini orqaga surmoqda.

Keyingi muammo iqtisod, Turkiya iqtisodining shiddat bilan rivojlanishi va erishilgan yutuqlarga qaramasdan YEI davlatning investitsiya ko'lami, iqtisodiy muvozanat yo'qligi (Istambul, Anqara, Izmir sanoatlashgan shahar bo'lsa, mamlakat janubi-sharqi nisbatan qoloq) va bank sektoridagi muammolarni vaj qilib ko'rsatishmoqda. Anqara va Bryusel` o'rtasida YEIga kirish borasidagi yana bir kelishmovchilik – Kipr muammosi. Muammo XX asrning 50 yillariga kelib orolda neft zaxiralarining topilishi bilan boshlanadi. 1959 yilda Turkiya, Gretsiya va Buyuk Britaniya ishtirokidagi Syurix-London kelishuviga ko'ra orolning hududiy yaxlitligi saqlanib, muzokaralarga olib keluvchi konstitutsiya loyihasi yaratildi, unga ko'ra Kipr Respublikasi prezidenti kiprlik yunonlardan, Vitse-prezidenti esa kiprlik turklardan 5 yil muddatga saylanadigan bo'ldi. Ammo 1963 yilda Kipr prezidenti Makkarios, Yunoniston qo'llab quvvatlashi va yunon millatchilarining tazyiqi ostida Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritdi. Unga ko'ra “turizm biznesida, savdo sohasida Kipr yunon savdo markazlari oldida savdo shahobchalariga ega bo'lish, Kipr orolining shimoliy qismidan boshqa yirik shaharlarga ko'chish” kabilarni nazarda tutuvchi cheklovlarni turklar apoteit deya qabul qildilar. Shu tariqa yunon siyosatchilari tomonidan olib borilgan kiprlik turk jamiyati izolatsiyasi, konfliktlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. 1983 yilda Shimoliy Kipr Turk Respublikasi tashkil etiladi va uning birinchi birezidenti etib Rauf Denktash e'lon qilinadi, ammo buni BMT tan olmaydi va a'zo davlatlarni ham uni tan olmaslikka chaqiradi.

Orolning Kiprturk qismi Kiprda federatif davlat tuzish tarafdori bo'lsalar, Kipryunonlar esa orolning yaxlit davlat ekanini ilgari surishadi, aynan shu nomuvofiqlik nizolarning bir yechim topishiga to'sqinlik qiladi. 1998 yilga kelib Kipr Respublikasi YEIga a'zo bo'lish to'g'risida muzokaralarni boshlab yuboradi, bunga nisbatan Turkiya tish-tirnog'I bilan qarshi chiqadi<sup>11</sup>. 2003 yilga kelib Turkiya bosh vaziri Rajab Tayib Erdog'an Kipr muammosini

tomonlama, dumaloq stol atrofida hal etishga chaqirdi. YEI tomoni Kiprni yaxlit xolida ittifoqqa a'zo bo'lishini so'rashadi, BMT ham albatta Turkiyaga orolning yaxlitligini ta'minlashda to'sqinlik qilmasligi va muammoni stol ustida hal ettirishga chaqiradi, ammo Kiprlik turklar va Turkiya tomoni orolning shimoliy qismini aloxida davlat sifatida qolish kerak degan tamoyilni ilgari surishdi.

2004 yilda Kiprga Kofe Anan tashrifi va ikki tilli va ikki jamiyatli davlatga aylantirish g'oyasini ilgari suradi va bu boradi qator choralarni ishlab chiqishadi, jumladan orolning ikkala qismiga ko'chib o'tishga ruxsat, Kiprlik turklarga nisbatan sanksiyalarni yechish kabilarni o'z ichiga oladi<sup>13</sup>. Kipr 2003 yilda YEI ning sammitida faol kuzatuvchisi sifatida qatnashadi, 2004 yil 1 mayga kelib YEIning to'liq a'zosi sifatida qabul qilindi, ammo orolning shimoliy qismi buni tan olishmaydi. To'g'ri qabul qilinishih boshlanishiga iqtisodiy va valyuta borasidagi a'zolikni ko'zda tutardi xalos, ammo bu Kipr uchun juda katta yutuq. 2005 yilda YEI Turkiyadan 1963 yili Anqara kelishuvini bekor qilishni, Kipr Respublikasini (orolning yunon qismi) tan olish va port hamda aeroportlarini ochishni so'radi. Vaziyatni keskinlashtirmaslik uchun 2005 yilda Turkiya, Anqara kelishuvi va qo'shimcha protokol qiritdi, lekin Kipr Respublikasini tan olishdan, unga havo va suv yo'llarini ochishdan voz kechdi. Bunga javoban YEI ushbu masala hal etilmaganiga qadar "Bojxona kengashi"ning 8 ta bandi (bo'limi ) ochiq qolishini e'lon qildi.

## XULOSA

Turkiyaning YI ga a'zo bo'lish masalasida ittifoq ichida ham ikki xil qarash mavjud. Birinchi guruh boy homashyo, kuchli armiya (NATO da ikkinchi o'rinda), ulkan iqtisodiy imkoniyatlarga ega qulay strategic joylashuv Sharqiy O'rtayer, Qoradengiz qirg'oqlari, O'rta sharq va Kaspiy havzasida geosiyosiy ta'siri va boshqa faktorlarni inobatga olib, Turkiyani YI ga qabul qilish kerak, degan fikr bildirishadi.

Bu borada Buyuk Britaniya hukumati Turkiyaning YEIga kirishiga ruxsat berilmasa, Turkiya kelajakda ittifoq uchun siyosiy-diniy confessional muammolar keltirib chiqarishi mumkin deb baholaydi, bundan tashqari Turkiya janubdan keladigan migratsiya to'lqinini to'sib turuvchi asosiy devor, agar u xoxlasa buni bekor qilishi mumkin deb xulosa qiladi. Estoniya, Pol'sha, Litva, Ispaniya, Portugaliya, Niderlandiya, Irlandiya kabi davlatlar Turkiyaning YEIga qo'shilishlariga xayrixox davlatlari safiga kiradi. Italiyada ikki xil qarashlar mavjud bo'lsa, Shvetsiya va Shvetsariya o'zlarini neytral zonada ko'rsatishmoqda. Shu nuqtai nazardan, Turkiyaning YEIga qabul kilishining ko'pgina tarafdorlari, Turkiya 50 yildan buyon nomzod maqomida turganligi, YEI tomonidan yuklatilgan ko'pgina talablarni bajarganligi uchun ham a'zolik masalasini kechiktirishga o'rin yo'k va bu mantiqsizlik deb ta'kidlashadi. Oppazitsion tomon fikriga ko'ra Turkiyaning ittifoqqa kirishi, Yevropada iqtisodiy tanglik, byudjet defitsiti, ishchilar migratsiyasi ortishi va ishsizlik, diniy nizolarning avj olishi hamda Yevropa yaxlitligiga qarshi taxdid kabi muammolarni keltirib chiqaradi.

## References:

1. Кудряшова Ю.С. Турция и Европейский союз: История, проблемы и перспективы взаимодействия. - М.: Институт Ближнего Востока, 2010.
2. Davutoglu A. Turkish foreign policy and the EU in 2010. Turkish Policy Quarterly. Fall 2009. Vol. 8. No. 3.

3. Aydin-Düzgıt S., Noutcheva G. Lost in Europeanisation: The Western Balkans and Turkey // West European politics. L.; N.Y.: Routledge, 2012. Vol. 35, Issue 1..
4. Saatgioglu B. How closely does the European Union's membership conditionality reflect the Copenhagen criteria? Insights from Turkey // Turkish studies. L.; N.Y.:Routledge, 2009. Vol. 10, Issue 4.
5. Qobulova, N. J., Abdumutalibov, J., & Akbarov, A. (2022). ISHLAB CHIQRISH KORXONASIDA MEHNAT XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH TIZIMI (MXBT) NI TANLILI. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(6), 218-223.
6. Кабулова, Н. Д., Ходжакулов, М. Н., & Рахимов, Д. Б. (2021). АКТУАЛЬНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ (ПОИСКОВО-ИНФОРМАЦИОННАЯ КАРТОГРАФИЧЕСКАЯ СЛУЖБА, ГЕОЛОКАЦИЯ) В ПОДРАЗДЕЛЕНИЯХ МИНИСТЕРСТВА ПО ЧРЕЗВЫЧАЙНЫМ СИТУАЦИЯМ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. Universum: технические науки, (7-1 (88)), 14-17.
7. Халматов, М. М., Исмаилходжаев, Б. Ш., Кабулова, Н. Ж., & Хусанов, Д. Д. (2021). ГЕОФИЗИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ АТМОСФЕРНЫХ ЗАГРЯЗНИТЕЛЕЙ В АНДИЖАНЕ НА ОСНОВЕ УРАВНЕНИЙ АЭРОДИНАМИКИ. Universum: химия и биология, (6-1 (84)), 30-34.
8. Goto, N., Shibata, Y., Rahmatillayev, J., Qobulova-tfd, N., Atajonova, S., Turg'unova, N., & Toxirov, A. Xorijiy hamkorlar ishtirokida o' 'tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjumani to'plaminig TAHRIR XAY'NATI.
9. Jalilovna, K. N., & Sattarovna, J. M. (2022). Procedure for Investigation and Accounting of Accidents in the Process of Activity in Production. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 200-204.
10. Бекташев, И. Б., Юсупов, К. А., Жуманова, М. С., Юлдашева, Г. Т., & Мухтаров, З. М. (2020). ОСОБЕННОСТИ АНТИБАКТЕРИАЛЬНОЙ ТЕРАПИИ ТУБЕРКУЛЕЗА ЛЕГКИХ У ВИЧ-ИНФИЦИРОВАННЫХ БОЛЬНЫХ. Форум молодых ученых, (12 (52)), 80-84.
11. Maxsudaxon, J. (2022). PROCEDURE FOR INVESTIGATION AND ACCOUNTING OF ACCIDENTS IN THE PROCESS OF ACTIVITY IN PRODUCTION. Universum: технические науки, (6-6 (99)), 48-50.
12. Kuchkarova, C. H., Nizamova, U. S., Abdullaev, S., & Madrakhimova, G. A. (2019). The High Water Plants Water Road in Cleaning. Annual Research & Review in Biology, 1-5.
13. Kuchkarova, C. H. (2019). NATURAL DISTRIBUTION OF THE ALGAE PLANT OF THE TREATMENT OF TELEAROSOVODIS, SYSTEMATIC PLACE AND SEPARATE BIOLOGICAL FEATURES. Central Asian Problems of Modern Science and Education, 4(2), 117-124.
14. Yo'ldashev, A., & Jalilov, A. (2022). FAVQULODDA VA EKOLOGIK OFAT HOLATLARIDA KORXONALAR BOSHQARUVI. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 2(13), 269-275.
15. Jalilov, A. (2022). MODEL FOR IDENTIFICATION AND ANALYSIS OF PROBLEMS IN THE ACTIVITIES OF OFFICIALS OF THE NATIONAL ACTION AND MANAGEMENT CENTER. Science and Innovation, 1(7), 286-294.
16. Yo'ldashev, A., & Jalilov, A. (2022). FAVQULODDA VA EKOLOGIK OFAT HOLATLARIDA KORXONALAR BOSHQARUVI. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 2(13), 269-275.

17. Jalilov, A. (2022). MODEL FOR IDENTIFICATION AND ANALYSIS OF PROBLEMS IN THE ACTIVITIES OF OFFICIALS OF THE NATIONAL ACTION AND MANAGEMENT CENTER. *Science and Innovation*, 1(7), 286-294.
18. Jalilov, A. (2022). FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGINING FAVQULODDA VAZIYATLARDA HARAKAT QILISH VA BOSHQARISH MILLIY MARKAZI MANSABDOR SHAXSLARI FAOLIYATIDAGI MUAMMOLI MASALALARNI ANIQLASH VA TAHLIL QILISH MODELI. *Science and innovation*, 1(C7), 286-294.
19. Jalilov, A. (2023). «FVHQ VA BMM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MODELI». © ООО «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»
20. Jalilov, A., Нилуфар, К., & Xalmatov, M. (2023). WAYS TO IMPROVE THE EFFECTS OF HEAVY METALS IN THE ATMOSPHERE ON LANDSCAPE TREES AND SOILS. © ООО «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА».
21. Jalilov, A., & JALILOV, A. (2022). O'zbekiston respublikasi atrof-tabiiy muhit va ekologiyaning yomonlashuvi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish muammolari.
22. Madaminjonovich, Q. H. (2022). AHOLI ZICH YASHAYDIGAN HUDUDLAR EKOTIZIMLARI BOSHQARUVI: QURILISHDA ATROF-MUHITNI BOSHQARISHNING EKOLOGIK VA IQTISODIY SAMARADORLIGI.
23. Sotvoldiyevich, A. R. (2021). Family Ceremonies In Connection With Funeral (On The Example Of The Karakalpaks Of The Fergana Valley). *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 1(1.5 Pedagogical sciences).
24. АТАХАНОВ, R. (2023). ФАРФОНА ВОДИЙСИ ПОЛИЭТНИК ТАРКИБИНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА МИГРАЦИЯ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ.
25. Атаханов Р. С. ФАРФОНА ВОДИЙСИ ПОЛИЭТНИК ТАРКИБИНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА МИГРАЦИЯ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ //Proceedings of International Educators Conference. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 27-31.
26. АТАХАНОВ, R. (2022). МАТЕРИАЛЫ К ИССЛЕДОВАНИЮ ПОХОРОННО-ПОМИНАЛЬНОЙ ОБРЯДНОСТИ КАРАКАЛПАКОВ ФЕРГАНЫ: ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИИ (НА ОСНОВЕ ПОЛЕВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ). Ошского государственного педагогического университета.
27. Рахимов, А. Ю., Абдурахмонов, А. А., & Сулаймонов, Ш. А. (2015). Изучение состояния использования ваты-сдира и пути повышения качества коконного сырья. *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов*, (4), 152-157.
28. Abdurashid, A. (2023). Efficient Method Of Biogas Production. *Eurasian Journal of Engineering and Technology*, 17, 28-34.
29. Abdurakhmonov, A. THE CONCEPT OF NATURE AND HEROES IN "ROCKS ALSO CRY". *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*, 1, 481.
30. Abdurakhmonov, A. A., & Dadabayeva, N. A. PREVENT SERIOUS INFECTIOUS DISEASES AND THEIR SPREAD PRECAUTIONARY MEASURES.
31. Tursunov, X. T., & Rahimova, T. U. (2006). *Ekologiya*.
32. Jalilovna, Q. N., Rustamjon o'gli, Y. D., Xosiljon o'gli, M. J., & Isroiljonovich, I. O. (2021, January). HIMOYA GAZLARI MUHITIDA PAYVANDLASHDA MEHNAT MUHOFAZASI. In *Archive of Conferences* (Vol. 13, No. 1, pp. 47-48).



33. Yusupov, I. I., Qobulova, N. J., Xojiev, A. A., & Vaxobov, A. (2020). TO REDUCE GLOBAL CLIMATE ISLAND FOCUSED LOCAL COOPERATION. *Theoretical & Applied Science*, (11), 501-507.

34. Кобулова, Н. Ж., & Нарзиев, Ш. М. (2021, December). ХОДИМЛАРНИНГ МЕХНАТИНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ. In *Здравствуйте, уважаемые участники международной научной и научно-технической конференции, дорогие гости* (p. 485).

35. Кабулова, Н. Ж. (2020). Традиционно-национальный узбекский головной убор мужчин (тюбетейка-дуппи) ферганской долины. *Universum: технические науки*, (8-2 (77)), 10-12.

36. Матрасулова, Н. И. (2022). СОСТАВ И СОРБЦИОННЫЕ СВОЙСТВА НАТУРАЛЬНОГО ШЕЛКА. *ТЕСНика*, (1 (9)), 11-14.

